

## NUROTA DAVLAT QO‘RIQXONASINING FIZIK - GEOGRAFIK XUSUSIYATI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZIL KITOBIGA KIRITILGAN O‘SIMLIKLAR TAVSIFI

**Anvarova Orzigul Anvar qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti biologiya yo‘nalishi 2- bosqich magistranti

[Anvarovaorzigul@gmail.com](mailto:Anvarovaorzigul@gmail.com)

**Turginov Orzimat Turdimatovich**, b.f.f.d. dots.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika Instituti.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Nurota davlat qo‘riqxonasining geografik joylashgan o‘rni, hamda uning tuprog‘i, ichki suvlari, xususiyatlari, Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklar turlari haqida ma‘lumot keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat qo‘riqxonasi, geografik o‘rni, geologiyasi, tuprog‘i, Iqlimi, tur.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены сведения о географическом положении Нуратинского государственного заповедника, его почве, внутренних водах, характеристике и видах растений, занесенных в Красную книгу.

**Ключевые слова:** государственный заповедник, географическое положение, геология, почвы, климат, виды.

### ANNOTATION

This article contains information about the geographical location of the Nurota State Reserve, its soil, internal waters, characteristics, and plant species included in the Red Book.

**Keywords:** state reserve, geographical location, geology, soil, climate, species.

Qo‘riqxonalar tabiiy ekosistemalarni muhofaza etishning eng rivojlangan shakllaridan biri bo‘lib, turli yo‘nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar va xilma-xil ekspeditsiyalar monitoringi olib boriladigan hudud sifatida ajralib turishi kerak. Flora va o‘simliklar qoplami har bir biotaning muhim bo‘lagi sifatida alohida e‘tiborga olinishi talab etiladi. Muhofaza etiladigan hududlardagi taksonomik birliklarning inventarizatsiyasi jumladan, yuksak gulli o‘simliklar tur tarkibining aniqlanishi olib borilishi zarur bo‘lgan barcha tadqiqotlarning zamini bo‘ladi.

O'zbekiston qo'riqxonalari ko'p yillik tarixga ega bo'lishiga qaramasdan, yuksak o'simliklarning inventarizatsiyasi Chotqol Biosfera qo'riqxonasi [45] va Nurota davlat qo'riqxonasi [8] amalga oshirilgan xolos. Qolgan 7 ta qo'riqxonalarining florasida haqidagi ma'lumotlar juda ham kam.

Nurota davlat qo'riqxonasi Jizzax viloyatidagi Nurota tog' tizmasining markaziy qismida joylashgan, dengiz sathidan 530 dan 2169 m gacha balandliklarni egallaydi. 2303 gektar o'rmon bilan qoplangan.

Ulardan 240 ga yong'oq o'rmonlari). Asosiy o'rmon hosil qiluvchi turlar Buxoro bodomzorlari (1751 ga). 2011 yilda nashr etilgan qo'riqxonada florasi ro'yxati 820 o'simlik turini o'z ichiga oladi (Beshko, 2011). so'nggi yillarda qilingan botanika kashfiyotlari natijasida ro'yxat to'ldirildi va hozirgi vaqtda flora uchun Qo'riqxonada o'simliklarning 838 turi ro'yxatga olingan.

qo'riqxonada maydoni 17752 gektarni tashkil qiladi. Nurota tizmasi Zarafshon daryosi o'ng qirg'oq bo'ylab 250 km yoyilib brogan. Nurota tog'ining shimoliy yon bag'irlari qizilqumga qarab chuzilgan. Nurota tizmasi yuqori proterozoy davrida shakillangan, Markaziy Osiyodagi eng qadimgi tog' tizmasi hisoblanadi.

Nurota davlat qo'riqxonasi iqlimi continental, quruq, va juda issiq. Nurota tog'ining pastki qismida joylashgan Qizilqum sahrosidagi issiq muhit Nurota tog'lari iqlimiga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi. Nurota davlat qo'riqxonasi o'rtacha yillik harorat yanvar oyida 1-8 °C. Qishda ko'p qor yog'adi, qish oxirida yomg'irli, shamolli havo kuzatiladi. Qayd etilgan minimal harorat -32 °C hisoblanadi. O'rtacha yillik yog'ingarchilik yiliga 400 mm. Bahor qisqa, iliq, ba'zan hatto qor belgilangan bo'ladi. Yoz, uzoq, quruq va issiq, o'rtacha harorat iyul oyida 29,4°C, umumiy quyosh nurlanishi 130-140 kkal/sm<sup>2</sup>-ni tashkil etadi.

Nurota qo'riqxonasi hududi Haydar ko'li tomon toza va shaffof suvlar oquvchi turli o'lchamdagi o'ndan ortiq suv oqimlari (soylar) bilan kesiladi. Nurota tog'laridan oqayotgan soy va kichik daryolar suvi toza va ko'p hajmga ega sanaladi. Nurota tizmasining markaziy qismidagi ko'plab buloqlar faqat bahorda faolashish xususiyatiga ega.

Nurota tizmasi Pomir-Oloy va Tyan-Shan tog' tizimlari va Turonning cho'l tekisliklar orasidagi, hududlar ichida o'ziga xos muhiti tufayli hosil bo'lgan tabiiy flora dunyosi bilan ajralib turadi. Nurota davlat qo'riqxonasi Xalqaro Qizil kitobi (IUCN) va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyob endemik kenja turi Severtsov qo'y (*Ovis ammon severtzovi*) naslini asrab qolish maqsadida 1975- yilda tashkil etilgan. (*Jizzax viloyatidagi O'zbekiston respublikasi o'simliklari kadastiri*) bo'yicha Ayni paytda Nurota qo'riqxonasi 79 ta oilaga tegishli tomirli o'simliklarning 838 ta turi mavjud. Shuningdek qo'riqxonada ayni paytda o'simliklarning 33 ta turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan, ulardan

4 ta turi burchoqdoshlar oilasi, 1 ta tur ziradoshlar oilasi (apiaceae umbelliferae) 4 ta turini karamdoshlar oilasi (*Brassicaceae Cruciferae*), 3 ta turini loladoshlar oilasi (*Liliaceae*), 1 ta turini savrinjondoshlar oilasi (*colchicaceae*), 1 ta turini uzumdoshlar oilasi (*vitaceae*), 1 ta turini chinniguldoshlar oilasi (*Caryophyllaceae*), 2 ta turini chuchmomadoshlar oilasi (*amazyllidaceae*), 3 ta turini shirachdoshlar oilasi (*asphodelaceae*), 6 ta turini yalpizdoshlar oilasi (*lamiaceae*), 4 ta turini qoqio‘tdoshlar oilasi (*Asteraceae*), 1 ta turini g‘ovzabondoshlar oilasi (*boraginaceae*) tashkil etadi.



*Nurota davlat qo‘riqxonasining geografik joylashuvi Google Earth programmasi bo‘yicha.*

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” -T. 1-jild “CHinor ENK”. 2009.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” -T. “CHinor ENK”. 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” T. “CHinor ENK”. 2019.
4. O‘zbekiston Qo‘riqxonalarining tirik javohirlari T “Chinor ENK “ 2013.
5. Кадастр флоры Узбекистана джизакская область. Т 2021.
6. <http://meros.uz/object/nurota-davlat-qoriqxonasi>.